



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022-yil yanvar-may holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	511	Qo'rg'on tepa t.	182
Baliqchi t.	270	Oltinko'l t.	148
Shahrixon t.	264	Marhamat t.	146
Asaka t.	257	Jalaquduq t.	137
Andijon t.	256	Bo'ston t.	106
Izboskan t.	197	Buloqboshi t.	97
Xo'jaobod t.	189	Ulug'nor t.	59
Paxtaobod t.	185	Xonobod sh.	41


Joriy yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 045 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 377 taga ko'p va 114,1 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Baliqchi (128 ta), Shahrixon (102 ta), Izboskan (71 ta), Xo'jaobod (66 ta), Qo'rg'on tepa (62 ta), Paxtaobod (43 ta) va Marhamat (43 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 557
137,8 %



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

9 534

106,2 %



Sanoat

3 296

101,1 %



Qurilish

12 523

111,2 %



Savdo

1 415

102,5 %



Tashish
va saqlash

1 963

102,7 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

587

100,0 %



Axborot va aloqa

1 074

114,7 %



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

8 825

105,2 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 12 655

Asaka t. 4 040

Shahrixon t. 2 994

Andijon t. 2 944

Baliqchi t. 2 310

Qo'rg'ontepa t. 2 130

Izboskan t. 2 126

Oltinko'l t. 2 093

Marhamat t. 1 907

Xo'jaobod t. 1 831

Paxtaobod t. 1 800

Jalaquduq t. 1 744

Buloqboshi t. 1 306

Bo'ston t. 1 163

Xonobod sh. 877


Ulug'nor t. 854

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (39 291 ta) nisbatan 3 483 taga oshib, o'sish sur'ati 108,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Baliqchi (382 ta), Izboskan (345 ta), Andijon (341 ta), Asaka (337 ta) va Shahrixon (333 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 1 260 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 976 ta, sanoatda – 554 taga to'g'ri kelib, tashish va saqlash sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 34 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	481
Baliqchi t.	267
Shahrixon t.	252
Andijon t.	247
Asaka t.	241
Izboskan t.	193
Paxtaobod t.	182
Xo'jaobod t.	182
Qo'rg'ontepa t.	179
Marhamat t.	143
Oltinko'l t.	142
Jalaquduq t.	135
Bo'ston t.	101
Buloqboshi t.	91
Ulug'nor t.	56
Xonobod sh.	39

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 25 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi (132 taga), Shahrixon (95 taga), Izboskan (70 taga), Xo'jaobod (64 taga) va Qo'rg'ontepa (61 taga) tumanlarida sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (794 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (13 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 37 421 tasi yoki 87,5 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (138,1 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (115,0 foiz), savdo (111,2 foiz), sanoat (106,1 foiz) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (102,7 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (124,2 foiz), Baliqchi (123,9 foiz), Izboskan (121,4 foiz), Bo'ston (120,2 foiz), Ulug'nor (120,1 foiz) va Jalaquduq (119,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 499
Asaka t.	3 605
Andijon t.	2 632
Shahrixon t.	2 542
Baliqchi t.	2 009
Izboskan t.	1 843
Oltinko'l t.	1 788
Qo'rg'on tepa t.	1 787
Marhamat t.	1 636
Xo'jaobod t.	1 609
Paxtaobod t.	1 532
Jalaquduq t.	1 446
Buloqboshi t.	1 078
Bo'ston t.	953
Xonobod sh.	769
Ulug'nor t.	693


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	480	Qo'rg'on tepa t.	179
Baliqchi t.	266	Marhamat t.	143
Shahrixon t.	252	Oltinko'l t.	142
Andijon t.	246	Jalaquduq t.	135
Asaka t.	241	Bo'ston t.	101
Izboskan t.	193	Buloqboshi t.	91
Paxtaobod t.	182	Ulug'nor t.	56
Xo'jaobod t.	182	Xonobod sh.	39

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish
994	489	126
Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
872	70	82
Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turlar
50	69	176


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-may oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 373 taga oshgan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 794 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 13 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 416	Marhamat t.	1 628
Asaka t.	3 591	Xo'jaobod t.	1 601
Andijon t.	2 619	Paxtaobod t.	1 526
Shahrixon t.	2 537	Jalaquduq t.	1 439
Baliqchi t.	2 005	Buloqboshi t.	1 077
Izboskan t.	1 841	Bo'ston t.	949
Oltinko'l t.	1 781	Xonobod sh.	764
Qo'rg'ontepa t.	1 780	Ulug'nor t.	688


2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 3 057 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 108,9 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (137,9 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (114,7 foiz), savdoda (111,1 foiz) hamda sanoat (106,0 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (124,1 foiz), Baliqchi (123,8 foiz), Izboskan (121,5 foiz), Bo'ston (120,1 foiz), Ulug'nor (119,9 foiz) va Jalaquduq (119,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 357

19

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura

181


Asaka t.	459
Andijon sh.	304
Shahrixon t.	293
Qo'rg'ontepa t.	281
Andijon t.	270
Baliqchi t.	267
Izboskan t.	262
Paxtaobod t.	247
Marhamat t.	204
Jalaquduq t.	199
Oltinko'l t.	172
Ulug'nor t.	155
Bo'ston t.	155
Xo'jaobod t.	140
Buloqboshi t.	103
Xonobod sh.	46

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	2 975
Asaka t.	989
Andijon t.	826
Shahrixon t.	712
Xo'jaobod t.	539
Baliqchi t.	466
Oltinko'l t.	449
Qo'rg'ontepa t.	387
Izboskan t.	365
Jalaquduq t.	360
Marhamat t.	326
Buloqboshi t.	299
Paxtaobod t.	293
Bo'ston t.	210
Xonobod sh.	202
Ulug'nor t.	136



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 151,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 106,6 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (100,0 % ni), 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (84,6 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (93,5 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 019
99,6 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

297
115,1 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

980
100,6 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 13,5 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,6 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 29,7 foiz ulushni va 100,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 442
Asaka t.	1 125
Shahrixon t.	835
Andijon t.	786
Baliqchi t.	781
Oltinko'l t.	724
Izboskan t.	718
Qo'rg'ontepa t.	669
Paxtaobod t.	634
Marhamat t.	576
Xo'jaobod t.	571
Jalaquduq t.	562
Buloqboshi t.	351
Bo'ston t.	308
Xonobod sh.	223
Ulug'nor t.	218

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

8 079
109,4 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 529
114,5 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

915
114,8 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,4 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,2 foiz ulushni tashkil etib, 14,5 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,3 foiz ulushni tashkil etib, 14,8 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	774
Asaka t.	174
Andijon t.	139
Xonobod sh.	103
Shahrixon t.	97
Oltinko'l t.	84
Qo'rg'ontepa t.	80
Ulug'nor t.	72
Izboskan t.	69
Paxtaobod t.	64
Jalaquduq t.	59
Xo'jaobod t.	56
Baliqchi t.	55
Buloqboshi t.	54
Marhamat t.	47
Bo'ston t.	36

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 14,9 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	217
Asaka t.	45
Baliqchi t.	39
Marhamat t.	38
Xo'jaobod t.	35
Shahrixon t.	35
Buloqboshi t.	34
Andijon t.	28
Qo'rg'ontepa t.	24
Oltinko'l t.	19
Paxtaobod t.	17
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	13
Xonobod sh.	11
Ulug'nor t.	10
Bo'ston t.	6



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,5 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,9 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,5 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,7 foizga o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 39,0 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 94,6 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	380
Asaka t.	91
Shahrixon t.	86
Andijon t.	70
Izboskan t.	61
Baliqchi t.	54
Marhamat t.	48
Oltinko'l t.	46
Qo'rg'ontepa t.	45
Xo'jaobod t.	44
Paxtaobod t.	42
Buloqboshi t.	39
Jalaquduq t.	37
Xonobod sh.	16
Bo'ston t.	9
Ulug'nor t.	6

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 044
114,3 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18
112,5 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


12
171,4 %

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,2 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 14,3 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,7 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,5 foizga oshgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	585
Asaka t.	134
Andijon t.	98
Shahrixon t.	78
Qo'rg'ontepa t.	66
Izboskan t.	54
Baliqchi t.	51
Xo'jaobod t.	51
Oltinko'l t.	50
Marhamat t.	49
Paxtaobod t.	46
Jalaquduq t.	42
Bo'ston t.	41
Buloqboshi t.	37
Ulug'nor t.	17
Xonobod sh.	16

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 085
104,9 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

305
94,7 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

24
100,0 %

Havo transporti

1
100,0 %

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 4,9 foizga oshgan. Pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni, havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 94,7 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	450	Paxtaobod t.	141
Baliqchi t.	240	Marhamat t.	136
Shahrixon t.	216	Oltinko'l t.	124
Andijon t.	210	Jalaquduq t.	103
Asaka t.	203	Buloqboshi t.	86
Izboskan t.	177	Bo'ston t.	67
Qo'rg'ontepa t.	162	Ulug'nor t.	54
Xo'jaobod t.	149	Xonobod sh.	38

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 694
155,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 250
110,6 %



Sanoat

2 907
104,9 %



Qurilish

9 895
115,4 %



Savdo

1 305
103,7 %



Tashish va saqlash

1 343
108,4 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

464
109,2 %



Axborot va aloqa

802
118,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 815
107,9 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 300

Asaka t. 2 290

Andijon t. 2 074

Shahrixon t. 2 019

Izboskan t. 1 590

Baliqchi t. 1 568

Oltinko'l t. 1 437

Marhamat t. 1 384

Xo'jaobod t. 1 382

Qo'rg'ontepa t. 1 309

Paxtaobod t. 1 300

Jalaquduq t. 1 189

Buloqboshi t. 860

Xonobod sh. 626

Ulug'nor t. 592

Bo'ston t. 555


2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 37 421 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 29 475 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (155,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (118,3 foiz), savdo (115,4 foiz), sanoat (110,6 foiz), axborot va aloqa (109,2 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (108,4 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (137,5 foiz), Marhamat (127,0 foiz), Bo'ston (126,1 foiz), Ulug'nor (124,1 foiz), Izboskan (123,7 foiz) va Paxtaobod (123,7 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 211	Oltinko'l t.	179
Asaka t.	731	Jalaquduq t.	164
Baliqchi t.	354	Paxtaobod t.	147
Shahrixon t.	258	Izboskan t.	132
Qo'rg'ontepa t.	253	Buloqboshi t.	110
Andijon t.	231	Bo'ston t.	93
Marhamat t.	210	Xonobod sh.	77
Xo'jaobod t.	199	Ulug'nor t.	57


2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 14,6 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (68,6 foiz), qurilish (74,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (78,6 foiz), tashish va saqlash sohalari (79,5 foiz), shuningdek, hududlar kesimida esa – Paxtaobod (70,7 foiz), Andijon shahri (73,0 foiz), Shahrixon (81,4 foiz) va Qo'rg'ontepa (82,4 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	792	Buloqbooshi t.	91
Asaka t.	544	Baliqchi t.	60
Andijon t.	301	Xonobod sh.	56
Bo'ston t.	291	Jalaquduq t.	37
Shahrixon t.	246	Paxtaobod t.	36
Qo'rg'ontepa t.	198	Ulug'nor t.	33
Oltinko'l t.	145	Marhamat t.	25
Izboskan t.	100	Xo'jaobod t.	11

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- iyun holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 966 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 91,8 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 106,6 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda qurilish (131,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (127,8 foiz), tashish va saqlash (115,4 foiz), savdo (113,5 foiz) hamda sanoat (105,6 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Shahrixon (124,9 %), Baliqchi (120,0 %), Bo'ston (119,3 %), Andijon (118,0 %), Qo'rg'ontepa (116,5 %) va Paxtaobod (112,5 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 388 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 106,6 foizga, ya'ni 24 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qurilish (136,4 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (120,0 foiz) hamda savdo (116,7 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Asaka (140,0 foiz), Buloqboshi (128,6 foiz), Qo'rg'ontepa (118,2 foiz), Baliqchi (114,3 foiz), Paxtaobod (112,5 foiz) hamda Oltinko'l (110,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida

Andijon sh.	154
Andijon t.	30
Shahrixon t.	28
Asaka t.	28
Oltinko'l t.	21
Xonobod sh.	19
Buloqboshi t.	18
Jalaquduq t.	15
Marhamat t.	14
Xo'jaobod t.	13
Qo'rg'ontepa t.	13
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	8
Izboskan t.	7
Bo'ston t.	7
Ulug'nor t.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

26 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	199 Sanoat	30 Qurilish
63 Savdo	4 Tashish va saqlash	9 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
5 Axborot va aloqa	6 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	46 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 251 tasi qo'shma korxonalar, 137 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iyluk timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

